

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 84 (1145), 2024-yil 2-may, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## SAMARALI MULOQOTLARDA KENG KO'LAMLI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI KO'RIB CHIQLIDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-may kuni uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Javdat Yilmaz boshchiligidagi delegatsiya, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya, OPEK Xalqaro taraqqiyot jamg'armasi prezidenti Abdulhamid Al-Xalifa va Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri Mikoyil Jabborov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Javdat Yilmaz subhat avvalida davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari va ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Faol muloqotlar barcha darajalarda davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma loyiha va korxonalar soni, to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlar ko'paymoqda.

Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ish-tirokida energetika, konchilik, oziq-ovqat, to'qimachilik va boshqa ustuvor tarmoqlarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining bo'lajak navbatdagi yig'ilishi kun tartibini tayyorlash, eng avvalo, kooperatsiya loyihalarining yangi portfelini va madaniy-gumanitar almashinuv dasturini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda keyingi yillarda O'zbekiston bilan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida sheriklikning yuksak darajasiga erishilgani, yaqin va samarali hamkorlik qilinayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda banking mamlakatimizdagi loyihalari portfeli 4,4 milliard yevrodan oshgan. Ularda xususiy sektor ulushi 70 foizga yaqinlashdi.

Hamkorlik yo'nalishlari va ko'lamini, eng avvalo, kichik va o'rta biznes, xotin-qizlar tadbirkorligi, muqobil energetika, raqamli texnologiyalar kabi sohalarda kengaytirish maqsadida O'zbekiston va YTTB o'rtasida yangi Sheriklik strategiyasi qabul qilindi.

Banking faol ko'magi va bevosita ishtirokida davlat korxonalarini xususiy lashtirishga tayyorlash tadbirlari olib borilmoqda, bank-moliya sohasida yirik bitimlar amalga oshirildi. "yashil" energetika, transport infratuzilmasi, ekologiya va boshqa ustuvor yo'nalishlarda me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari suv ta'minoti, energetika, yo'l infratuzilmasi, "yashil" shaharlarni rivojlantirish borasida yangi loyihalarni tez fursatda tayyorlash va amalga oshirish muhimligini ta'kidladi.

Bo'lajak Xorijiy investorlar kengashi majlisining kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari Abdulhamid Al-Xalifa bilan uchrashuvda OPEK jamg'armasining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi muhim o'rinni qayd etib, O'zbekistonda sanoat, infratuzilma, suv ta'minoti va boshqa sohalarda moliyalashtirilayotgan tadbirkorlik loyihalarini yuqori baholadi.

Forum davomida imzolangan qiymati 500 million dollarlik bitim doirasidagi loyihalarni tez fursatda tayyorlash va amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi. Hujjatda turizm, logistika, farmatsevtika, ekologiya, xotin-qizlar tadbirkorligi va yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kabi yangi yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutilgan.

Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri Mikoyil Jabborov uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek, ilgari erishilgan kelishuvlar ijrosi doirasida amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'tgan yilda o'zaro tovar ayirboshlash 27 foizga, joriy yil boshidan esa yana 15 foizga oshdi.

Avtomobilsozlik, energetika, qishloq xo'jaligi, elektrotexnika, to'qimachilik, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmogda.

Loyihalar portfeli, shu jumladan, Qo'shma investitsiya kompaniyasi mablag'larini jalb qilgan holda yanada kengaytirish muhim ekani ta'kidlandi.

Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlarning iqtisodiy kun tartibini puxta tayyorlash maqsadida yaqin fursatda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi hamda ikki mamlakat hududlarining ikkinchi forumi o'tkaziladi.

Mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi. O'zbekiston, Ozarbayjon va Qozog'iston energetika vazirlarining bo'lib o'tgan uch tomonlama uchrashuvining asosiy yakunlari yuqori baholandi.

O'ZA

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

#### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING AYRIM FARMONLARIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TO'G'RSIDA

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchilligini ta'minlash, bozor tamoyillari asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash hamda pensiya va nafaqalar miqdorlarining rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmasligini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2024-yil 30-aprel

### KO'KSING TO'LIB, TO'YIB NAFAS OL

Tabiatni asrash, resurslarni tejash — burchimiz

Bu yil mart oyi nisbatan seryog'in bo'ldi. Yog'in ko'p bo'lishini ko'pchilik yurtdoshlarimiz, ayniqsa, qishloq ahli mo'l suv va yuqori hosildorlik manbai o'laroq yaxshi ko'radi. Menga esa boshqa bir jihati — yomg'irdan keyingi toza havodan ko'ksingni to'ldirib nafas olish mumkinligi ko'proq yoqadi.

Keyingi paytlarda poytaxt havosi ifloslanish darajasi yuqoriladi, antireytingda tez-tez yetakchilar qatoriga chiqyapti. Ijtimoiy tarmoqlarda buning sabablari turlicha talqin qilinadi.

Suv bilan havodan zarur, degan gapni ko'p ishlatamiz. Zero, shu ikki unvarsiz hayot yo'q. Ayniqsa, keyingi paytlarda buning qadri qanchalik baland ekanini butun dunyo, jumladan, biz ham tanamizda his qilyapmiz.

Havosiz bir daqiqa ham yashashning imkoni yo'q. Lekin u notoza bo'lsa-chi? Bu muammo aholi va texnika ko'p bo'lgan

poytaxt bilan chegaralanib qolgan yo'q. Biz bir paytlar jannatmonand, deb ta'riflaganimiz chekka-chekka tog'li hududlarga ham yetib boryapti.

Barchamiz bolalik yillarimizni tez-tez qo'msab turamiz. Inson tabiati o'zi teskari. Bolalikda tezroq katta bo'lishni orzu qiladi, yoshi katta bo'lgani sari o'sha beg'ubor bolalikka intiladi. Men Urgut tumanidagi uzoq tog'li qishloqda o'sib-ulg'ayganman.

Davomi 3-betda

# Asra

Abdusaid KO'CHIMOV

**Qatra simobday titrab, qalqib turibdi dunyo,  
Mezon singari idrab, salqib turibdi dunyo,  
Kuygan quyoshdek xira balqib turibdi dunyo...  
Chang-to'zonli zamonda, non-u tuzingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Asriy sahro, cho'llarda quturmoqda toshqinlar,  
Qarindoshdan qondoshga qirg'inlar-u bosqinlar,  
Imoga shay turmishlar Yalavochlar — sotqinlar...  
Fosiq dasturxonidan non-u tuzingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Mustaqillik, ozodlik qorbobodan sovg'amas,  
Ne-ne jasur alplarga g'animlar qilmadi qasd,  
Eh! Bugun ham oz emas tulki mijoz ayyor kas...  
Nafsi olchoq, qallobdan non-u tuzingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Buyuk ajdodlaringdan meros erur bu zamin,  
Yenog'ing shartdir bugun shu yurtning tashvish-g'amin,  
Qolsin desang to' abad O'ZBEK degan hur noming...  
Shon-u sha'ningni asra, qaynoq noningni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Asramasang o'zingni, tuzlig'ingni — tuzingni,  
Qashqirlar ilhaq — zordir o'yimoq uchun ko'zingni.  
Jahon eshitisin desang, hayqirig'ing, so'zingni,  
Rizq-u ro'zingni asra, chaqmoq so'zingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Har damingda ajdodlar armoni bor, ahdi bor,  
Manguberdi, Temurbek, Sarbadorlar jahdi bor,  
Har ikki Uyg'onishning jahonda o'z taxti bor...  
Uchinchi Renessans deb bosgan izingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Tuqqan yerda tug'ing tik, tuqqan joying chamandir,  
Qush butaga sig'ingay, sajdagohing Vatandir,  
Vatandan ayrilganga har qadam kafandir...  
Kafangado kaslardan el-u yurtningni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Dengizga ham osonmas, bardosh bermoq to'fonga,  
Hatto quyosh ham goho yo'l bergaydir to'zonga,  
Bugun yengil emasdir Yangi O'zbekistonga...  
Yangi O'zbekistonda dasht-u bo'zingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Daryo emas bir irmoq, bir daraxt o'rmon emas,  
Ko'klam emas bir giyoh, bitta don xirmon emas,  
Birligi yo'q ulusning ko'kragi osmon emas...  
Daydi to'da-uyurdan janda bo'zingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Bog' jamoli — bog'bondan. Bog'boning bor daryodil,  
Daryodilli bog'bonga daryo bo'lib qo'shilgil,  
Daryolarga aylanib, ummon kabi jo'shsin el...  
Bog'li diyoring uchun qor-u muzingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Fursat poylab turibdi, qaroqchi kishandorlar,  
O'z qavmini kishanlab, to'n kiygan nishondorlar,  
Ko'm-ko'k dalangni bevaqt bosmasin desang qorlar...  
Bemahal yoqqan do'l-u qishdan kuzingni asra,  
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.**

**Bir vujudga aylansin ming-milliyon jon-u tan,  
Ming-milliyon vujudlar bir jonga bo'lsin payvand,  
Quyosh bitta, Oy bitta, Oy-u Quyoshdir VATAN...  
Quyoshingni, Oyingni qosh-u ko'zingdek asra,  
O'g'il-qizingdek asra, asra, o'zingdek asra!**





## Inson qadri uchun

## XALQIMIZ UYG'UQ BO'LSA...

**“O'zing mening ulug'lardan ulug'imsan, Vatanim!” deganda, shoir haq gapni aytgan. Darhaqiqat, odam farzandi uchun Vatan bamosoli onadek aziz va mukarram. Uning bag'rida kulgan bahor — bizning bahorimiz, Vatan erishgan zafar — bizning ko'chamizdagi bayram. Uning olamda qozongan obro'-e'tibori, mavqidan har birimizning chehrasida nur, ko'zimiz chaqnoq. U bor ekan, boshimiz tog'lariday sarbaland, qaddimiz qoyalarday tik. Ona O'zbekistonimiz biz uchun shunday tengsiz, yagona, e'zozli ma'vo, tanho qadriyat. Vatanga sadoqat, ona yurtga muhabbat hissi kishi qalbidagi eng bebaho tuyg'udir. Shoirlar Vatanga sadoqat mavzusini otashin misralarda madh etsa, iste'dodli hoziflar buni dilbar navo, sohir ovoz bilan olamga tarannum etadi.**

Bu muqaddas so'z zahirida qanchalik ilohiy kuch-qudrat, ma'no, beqiyos da'vat muhajass ekanini hech kim, hech qachon to'la ifoda etolmasa kerak. Biz kindik qonimiz to'kilgan zamin, ona tuproq bilan faxrlanamiz, e'zozlaymiz. Uning nomini eshitgan zahoti qalbimiz to'lqinlanadi, bir olam g'ururga to'ladi. Dunyoda o'zbekistonlikman degan har bir insonning asl vatani shu aziz tuproqdir. Bu muqaddas zaminida ulug' bobokalonlarimiz xoki yotibdi. Qalblarda “Vatanni sevmok — iymondandir” degan hikmat muhrlanib qolgan. Uning muqaddasligi ana shu holda namoyon bo'ladi. Inson uchun yurak nechog'liq zarur va aziz bo'lsa, Vatan undan-da zarur va azizroqdir.

Vatanimiz mustaqilligi Yaratganning xalqimizga buyuk in'omi. Mana, 33 yildirki, ona yurtimiz bag'rida mazmuni va ko'lami asrlarga qiyos qilgulik ulug'vor, hayratomuz o'zgarishlar, salmoqli ijtimoiy siljishlar yuz bermoqda, xalqimizning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi boyib, sifat jihatidan o'zgarib, kamalakdek yangi jilolar kashf etib bermoqda. Bu esa, shubhasiz, baxtiyor zamondoshlarimizning harakatida, intilishlarida, ularning ezgu maqsadlar sari xayrli izlanishlarida

samarasini namoyon etmoqda. Ammo ushbu yutuqlar osonlikcha qo'lga kiritilmadi.

Mamlakatimizning turli sohalarida erishgan yutuqlarini ko'rsam, beixtiyor mustaqillikning dastlabki yillari ko'z oldimdan o'tadi. Go'yo endi hamma narsa birdan o'zgarib ketadiganday odamlar xursand bo'lgandi. Ko'pchilik hatto turli klublar tashkil etib, mustaqil davlat qanday bo'lishi kerakligi haqida bahsalar bo'lgandi.

Haqiqatan, itifoqning parokanda bo'lishi tufayli barcha aloqalar uzilgan, mamlakatda ocharchilik bo'lishi ehtimoli mavjud edi. O'zbekiston asosan, paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgani bois, g'alla faqat chorva mollariga oзуqabop ekin sifatida ekilardi. Yetishtirilgan g'allani ham ayrim ko'zi och odamlar ahvoli biznikidan ham abgor bo'lgan qo'shni respublikalarga yashirincha chiqarib sotib kelardi.

Esimizda, oiladagi har bir kishi uchun bir oyga 3 kilodan un sotilishi yo'lga qo'yildi. Bu kuniga 100 grammdan degani. Bir necha yil shunday yashadik. Odamlar o'sha paytda ham hokimiyatlarga arz bilan kelardi. Ular bugungiday chiroq o'chaypti, gaz bosimi past, yo'limiz yomon

deyishmasdi. Bizga un bering, o'n nafar farzandim non so'raypti, deyishardi. Bugun bu gaplar hozirgi yoshlar uchun ertak bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu haqiqat, tarixni o'zgartirish, yolg'on gaplarni aytish, yozish gumrohlikdir!

Bir kuni viloyat hokimi o'zgaribdi, degan gapni eshitgan odamlar ichida qo'l siltab qo'ydi. “Qozonda bori cho'michga chiqadi. Hokim o'zgarгани bilan ombordan un bo'lmaganidan keyin, osmondan tushmaydi-ku!”. Ko'cha-ko'yda viloyatda bo'layotgan o'zgarishlar haqidagi

Shu kunning o'zida barcha fuqarolar yig'inlari raislariga aholi uchun un, o'simlik yog'i, shakar berildi. Berilganda ham ikki hissadan berildi. Raislarga sakkiz nafardan oshiq farzandi bor oilalarga bir qopdan un berishni hokimning shaxsan o'zi tayinladi.

O'sha kungi xalq quvonchini tasvirlash qiyin. “Bu ne'matlar qayoqdan keldi?” deb hech kim so'ramadi. Doim xalqidan yashirinib yurgan mahalla raislari yorug' yuz bilan odamlarga baraka ulashdi. Un, yog' va shakar olganlar esa uyiga shoshildi.



Vatanimiz mustaqilligi Yaratganning xalqimizga buyuk in'omi. Mana, 33 yildirki, ona yurtimiz bag'rida mazmuni va ko'lami asrlarga qiyos qilgulik ulug'vor, hayratomuz o'zgarishlar, salmoqli ijtimoiy siljishlar yuz bermoqda, xalqimizning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi boyib, sifat jihatidan o'zgarib, kamalakdek yangi jilolar kashf etib bermoqda.

muhokamalarda shunday gaplar aytilardi. Ammo viloyatning yangi rahbari oradan o'n kun o'tib, barcha fuqarolar yig'inlari raislarini viloyat hokimligiga taklif qildi. Raislar Shavkat Mirziyoyevni shu yerda ko'rdi. U har bir rais bilan suhbatlashib, qancha aholisi borligini so'rab-surishtirdi, ijtimoiy vaziyatni o'rgandi.

Bir ayolning mahalla raisidan: — Bu un, yog' va shakarni qayerdan olib keldingiz? — deb so'ragani hamon yodimda...

O'sha kuni ming-minglab odamlar davlatimiz rahbarini duo qildi. Tog'ning yuksakligi, mahobati uzoqdan yaxshi ko'rinadi, deyishadi.

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan buyon qancha qiyinchiliklar ko'rgan bo'lsak ham yillar o'tgan sari uning qadr-qimmatini, mohiyatini teran anglab boryapmiz.

Milliy istiqlol bamosoli sehra mo'jiza yangilig' bekiqil qolgan buloqlar ko'z ochib, ming-minglab tashna insonlarga obihayot ato etganidek, yurtimiz odamlarining ham yuzlariga quvonch va ziyo bag'ishlab, ularning ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida javlon urishlari, o'z iste'dod-u qobiliyatini to'la-to'kis namoyon etishi uchun keng ufqlar ochib berdi.

Darhaqiqat, g'olibona bosib o'tilgan mustaqillikdan keyingi yo'lga nazar salsak, dastlabki qiyinchiliklarni mardonavor yengib, ijoiy o'zgarishlar sari dalil qadam tashlaganlarimiz yuqori ko'zga tashlanadi.

Milliy istiqlol sharofati tufayli o'zligini tanib, qadr-qimmatini topib, qad rostlayotgan, o'ziga xos taraqqiyot va yuksalish yo'lini belgilab, istiqbolning yorqin ufqlari sari muzaffar odimlar tashlayotgan O'zbekistonimizning jahon uzra e'zoz-u e'tibor, shon-u shuhratga sazovor bo'lib borayotgani buning isbotidir.

Ayniqsa, keyingi yetti yilda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotimiz tubdan

o'zgarib ketdi. Inson qadri oliy qadriyatga aylandi. Davlatimiz rahbarining “Odamlar ertaga yoki uzoq kelajakda emas, bugun baxtli yashashi kerak” degan shiori siyosatimizning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ushbu islohotlar samarasi xalqimiz turmush tarzida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Eng muhimi, yurtdoshlarimizning ertaga bundand farovon hayot uchun ishonchi ortib, yuksak maqsadlar sari harakat qilmoqda.

To'g'ri, hali yechimini kutayotgan muammolar bor. Ammo davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, hech kim chetdan kelib, muammolarimizni hal qilib bermoqda. Bugun butun dunyoda og'ir va murakkab vaziyat hukm surmoqda. Bu bizdan yanada siyosiy hushyor, chin vatanparvar bo'lishni taqozo etadi. Xalq ta'biri bilan aytganda, bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlilikda harakat qilmasak, albatta, ko'zlagan maqsadlarimizga yetamiz. Zero, qachonki xalqimiz uyg'iq bo'lsa, tinchlik, taraqqiyot, obodlik bardavom bo'lib, aziz Vatanimizga hech kim daxl qilishga botinilmaydi.

Asad MUSTAFOYEV,  
jurnalist

## Logistika

Dunyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, mintaqaviy integratsiyalashuvda xalqaro transport yo'laklari muhim ahamiyatga ega. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti hamda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi yuk tashish hajmi ortishi fonida bunday koridorlar, jumladan, multimodal yo'laklar yaratish anchagina jadallashgan. Ayni jarayon O'zbekistonga ham yangidan yangi imkoniyatlar eshiklarini ochmoqda.

Dengiz portlariga chiqish hamda bu yo'nalishda qulay transport yo'laklari yaratish O'zbekiston uchun strategik jihatdan o'ta muhim.

Belarus — Rossiya — Qozog'iston — O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston multimodal transport yo'laga yo'lga qo'yilishi shu jihati bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonning Afg'oniston orqali yangi transport yo'laga yaratish rejasi qator hamkor davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Buning ortidan SHHTga a'zo davlatlarning Toshkent shahrida 2023-yil 1-noyabrda bo'lib o'tgan transport forumida Belarus — Rossiya — Qozog'iston — O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston xalqaro transport yo'lagini yaratish bo'yicha angliashuv memorandumini imzolandi.

Termiz shahrida mazkur koridorni rivojlantirish bo'yicha ishchi guruhning birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Onlayn va oflayn rejimda o'tkazilgan uchrashuvlarda Belarus, Rossiya, Qozog'iston, Pokiston, Afg'oniston va O'zbekiston vakillari ishtirok etdi.

Multimodal transport koridorini yo'lga qo'yish va rivojlantirish Markaziy Osiyo va MDHga a'zo davlatlarni O'zbekiston orqali Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lash va mintaqaning qoq o'rtasidagi yurtmizning tranzit salohiyatini yanada oshirish imkonini beradi.

— Mazkur uchrashuv 2023-yil noyabr oyida ayni yo'nalishda Toshkent shahrida imzolangan memorandum amaliyotga ta'tbiq etilishining mantiqiy davomi bo'ldi, — deydi Termiz shahridagi Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi direktori Oybek Ro'ziyev. — Afg'oniston orqali dengizga

chiqishni ta'minlovchi multimodal transport yo'laklarini yaratish davlatlar o'rtasida aloqalarni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Qo'shni Afg'onistonda tinchlikni qo'llab-quvvatlash hamda bu hudud orqali dengiz portlariga chiqish masalasi Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelishi bilan o'rtaga chiqqandi. Davlatimiz rahbari xalqaro minbarlardan turib Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash, mamlakatlarni mintaqaning iqtisodiy jarayonlariga jalb etishga doir takliflarini muntazam ravishda ilgari surib keladi.

Termizdagi yig'ilishda Belarus — Rossiya — Qozog'iston — O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston multimodal transport koridorini yo'laga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha muammolarga yechimlar birgalikda izlandi.

Oltilta davlatning Transport vazirligi mas'ullari, xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshiradigan uyushmalar rahbarlari, logistika kompaniyalari vakillarini bir manzilda jamlagan uchrashuvda tranzit jarayonida hududlarimiz temir yo'l, transport va suv yo'li imkoniyatlari aniqlandi. Tashuvlarni qay tartibda amalga oshirish choralarini muhokama etildi.

— Bizda Shimol-Janub koridori ham bor. U Hindistongacha yetib boradi. Belarus — Rossiya — Qozog'iston — O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston multimodal transport yo'laga esa to'ldiruvchi muhim koridor. Nafaqat bizga, balki hamkor davlatlarga ham yangi muqobil yo'nalishlar kerakligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Rossiya va Belarus Transport vazirliklari mas'ullari ham mahsulotni tezroq va xavfsiz yetkazib berish koridoriga ehtiyoj borligini,

qisqa va qulay ekanini bildirdi. Afg'oniston va Pokiston uchun esa bu koridorning ishga tushishi qo'shimcha ish o'rnlari yaratadi. Mamlakatlar transport infratuzilmasi yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi, — deydi O'zbekiston Respublikasi transport vazirining birinchi o'rinbosari Mamanbiy Omarov.

2018-yildan buyon O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston yo'nalishida temir yo'l qurilishi borasida izchil ishlar davom etmoqda. Koridorning muvaffaqiyatida mazkur yo'l ham alohida ahamiyat kasb etadi.



Afg'oniston orqali tranzit yuk tashish hajmi keyingi yillarda 30 foiz oshib, qariyb 1 million tonnani tashkil etdi. 2022-yilda ikki mamlakat o'rtasida Afg'oniston orqali yuk tashuvlari 2021-yildagidan ikki yarim barobar ortib, 675 ming tonnani tashkil etdi. 2024-yilda esa O'zbekiston 1 million tonnadan ortiq yuk tashishni rejalashtirgan.

Belarus — Rossiya — Qozog'iston — O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston multimodal transport koridori esa bu borada yangi imkoniyatlar yaratadi.

Surxondaryodagi yig'ilishda davlatlar vakillari “Termiz xalqaro savdo markazi” erkin savdo iqtisodiy zonasida tadbirkorlar uchun yaratilgan qulaylik va shart-sharoitlar hamda “Termiz Cargo” xalqaro logistika markazi faoliyati bilan ham yaqindan tanishdilar.

Amudaryo qirg'og'idagi “Termiz xalqaro savdo markazi” erkin iqtisodiy

markazi, restoran, tibbiy diagnostika va sog'lomlashtirish markazi bor.

— Yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilayotgan ushbu yo'nalish nafaqat Afg'oniston, balki Belarus, Qozog'iston va O'zbekiston uchun ham muhim, deb o'ylayman. O'zbekiston mamlakatimizning tinchligi, oso'yishtaligi va farovonligi uchun eng ko'p harakat qilgan yaxshi qo'shni davlat. Shu bilan birga, Afg'onistonning iqtisodiy yuksalishi uchun ham imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. O'zbekistonda biznesimni yanada kengaytirish niyatim bor, chunki buning uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, — deydi Afg'oniston meva-sabzavotchilik uyushmasi raisi Hoji Nijobat Haydariy.

U xayrli, istiqbolli tashabbuslar o'zi singari ko'plab afg'onistonlik va pokistonlik tadbirkorlarga keng imkoniyatlar taqdim etishini ta'kidladi.

— Davlatlarning transport yo'nalishi mas'ullari uchrashuvi yakuni bo'yicha tomonlar o'rtasida “yo'l xaritasi” imzolandi. Mazkur “yo'l xaritasi”da yuk tashuvlarini rivojlantirish bo'yicha aniq rejalarini amalga oshirish belgilab olindi. Xususan, yuk tahlillarini yuritish, tashuv jarayonida elektron raqamli hujjatlardan foydalanish, tashuv jarayonlarini soddalashtirish bilan tranzit yuk tashuvlarini oshirish ko'zda tutilgan, — deydi O'zbekiston Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazi direktori Bekzod Xolmatov. — 5 ta davlat transport idoralari rahbarlari va xususiy sektor vakillari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvlar yakuni bo'yicha tez kunlarda yangi ishchi guruhning amaliy

o'rganishlari tashkil etiladi. Har tomonlama manfaatlari bu tashabbusning boshida turgan O'zbekiston tomonidan, ayniqsa, loyihani yanada tezlashtirish maqsadiga jiddiy amaliy harakatlarga kirishilmoqda.

Xo'sh, ushbu savdo koridori O'zbekistonga nima beradi? Mutaxassislarning aytishicha, bu, birinchi navbatda, savdoni moliylashtirishga yo'l ochadi. Logistika jihatdan ham yo'lakdagi hamma davlatlarga qator qulayliklar yaratadi. Bunday yo'laklar tez buziladigan tovarlarni o'z vaqtida yetkazish transport xarajatlarini kamaytiradi. Bir so'z bilan aytganda, mahsulotni tezroq, sifatliroq va eng asosiysi, arzonroq yetkazish imkonini beruvchi bu loyiha mamlakatimiz tadbirkorlari uchun ham har tomonlama foydali.

Surxondaryoda ayni yo'nalishda yangidan yangi loyihalar amaliyotga ta'tbiq etilmoqda. Masalan, o'rik, gilos, shaftoli, uzum kabi mevalar viloyatda eng birinchi uzildi.

Termiz tumanining Xalqobod mahallasida 58 gektar yerda ertapishar o'rik yetishtiriladi. Shu kunlarda Turkiya, Italiya va Gretsiya kabi davlatlardan keltirilgan o'rik hosili pishib yetildi. O'rik kunlik terib olinib, Rossiyaga eksport qilinmoqda hamda mahalliy aholi iste'moli uchun ichki bozorlarga chiqarilmoqda. Turk investorlari sarmoyasi asosida barpo etilgan mazkur 103 gektarli intensiv bog'ning 52 gektarida ertapishar o'rik parvarishi qilinmoqda. Bundan tashqari, yana 5 gektar maydonga serhosil o'rik ko'chatlari ekildi. Hozirgi paytda bog'ning har bir gektaridan qariyb 25 tonnadan hosil ko'tarilmoqda.

— 2023-yili bog'imizdagi o'riklar 12-aprelda pishib yetilgandi. Bu yil esa obhavoning inijligi tufayli 15 kunga kechikdik. Ammo baribir birinчилardan bo'lib sotuvga chiqardik. Hozir tayyor mahsulot asosan, Rossiyaga eksport qilinmoqda. Biz bu bilan to'xtab qolmoqchi emasimiz. 35 gektar maydonga xuddi shunday ertapishar shaftoli ekanmiz. U ham hosilga kira boshladi. Aminmanki, kelgusi yildan shaftoli ham eng birinchi bo'lib bizda pishadi. Bog'larni yanada kengaytirmoqchisiz, sababi, biz yetishtirgan mahsulotlarga qator davlatlarda ehtiyoj katta. Muhim koridor to'liq ishga tushishi esa mahsulotlarimiz bozorini yanada chaqqon qiladi, — deydi turkiyalik tadbirkor Murod Chetin.

Hozir barqaror rivojlanayotgan davlatlarga nafaqat buguni, balki kelajagini ham oldindan ko'ra olish talabi qo'yilmoqda. Ayni jarayonlarni teran anglagan O'zbekiston allaqachon kelajakning mustahkam asoslarini bunyod etayotir. Muhimi shu.

Sarvar TO'RAYEV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

**"O'zbekiston – 2030" strategiyasi**

# KO'KSING TO'LIB, TO'YIB NAFAS OL

**Tabiatni asrash, resurslarni tejash – burchimiz**



**Lutfulla SUVONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

**Boshlanishi 1-betda**

Qishloqda o'tgan bolalikning gashni o'z-gacha bo'ladi. Soyalaridan sharqirib oqayotgan zilol suv, yaylovda yurgan qo'y-qo'zilar, ko'm-ko'k keng adir-u yalangliklar, bog'-rog'lar, barchasi endi xuddiki bir shirin tushdek.

Biz bir paytlar ko'kragimizni mayin maysaga qo'ygancha boshimiz bilan egilib tip-tiniqu buloq suvi ichardik. Hozir o'sha buloq boshlariga boraman. Afsuski, ularning 20 dan ortig'ini qurib qolibdi. Atrofi oldingiday obod emas. Qurigan, qovjiragan maysalar. Suv bo'lmagan joyda obodlik qayda.

Nega bunday bo'ldi, deysizmi? Chunki iqlim o'zgarishi, havoning me'yordan ortiq isishi va ifloslanishi bugun qishloqlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmad. Tabiatga bepisand munosabatimiz, dovdaraxtlarni ayovsiz qirganimiz, suvni tejashni bilmaganimiz oqibati bu.

Keyingi yillarda aholi soni o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlari ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. O'rmonlar ko'payish o'rni tabora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanayapti. Bundan tashqari, toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi tabiat muvozanatiga putur yetkazyapti.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasida, turli xalqaro tadbirlarda jahon hamjamiyati e'tiborini ekologik vaziyat bilan bog'liq muammolarga qaratmoqda, ularni bartaraf etish, salbiy oqibatlarini yumshatish yoki oldini olishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surmoqda. Shunga mos

rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqildi, O'zbekiston Parij bitimini ratifikatsiya qildi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish bo'yicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Shular doirasida aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish, salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelimoqda.

Shu o'rinda, modomiki, xavf darajasi yuqori, ayniqsa, suv tanqisligi kundalik turmushimizning muhim zarurati — oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga jiddiy muammo tug'dirishi tayin ekan, bu borada rejalarni qanday, masalaga tizimli va kompleks yondashuvimiz qanaqa, degan savollarni o'rta olib chiqadi. E'tiborli jihati, bu borada puxta o'ylangan reja asosida keyingi qadamlarni ham tashladik. Ana shunday muhim dasturlarimizdan biri "O'zbekiston — 2030" strategiyasidir.

Strategiyaning 3-yo'nalishi suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini qamrab olgan. Hujjatda yurtimizda suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish borasida qator ustuvor vazifalar belgilangani muammoning salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, unda suv ishlatish samaradorligini 25 foiz oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini



etiriladi. Suv tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarimiz yillik quvvati 300 ming gektarga yetkaziladi, barcha ichimlik suv iste'molchilariga hisoblagichlar o'rnatish ishlari jadallashtiriladi.

Suv resurslarini tejash borasidagi islohotlar doirasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, sug'orish tizimi va suv tejoychi texnologiyalarni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, obodonlashtirish maqsadida foydalaniladigan suv o'tkazgichlarga alohida hisoblagichlar o'rnatiladi, tarmoq mas'ullarining

so'zlashmalarini 61 mingdan ortiq rahbar va ishchisi qisqa muddatli o'quv kurslarida bilim va tajriba orttirdi. Loyiha Turkiya, Ispaniya va Xitoyning muvaffaqiyatli tajribasini hisobga olgan holda, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali amalga oshirildi. Ikkinchi bosqich 2024-yildan 2030-yilgacha, yiliga agrar sohaning 10 ming vakilini o'qitishni o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: strategiyada belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish jarayoni qanday kechmoqda?

— Belgilangan vazifalar doirasida birgina joriy yilning o'zida mamlakatimizda kamayib va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan dorivor o'simliklar madaniy plantatsiyalari maydoni 25 ming gektarga yetkaziladi, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bo'lim boshlig'i Abdurashid Sodiqov. — Bunday maydonlarni kengaytirishdan asosiy maqsad hozirgi ekologik inqiroz sharoitida kamayib ketayotgan, tabiiy muhitdan olinayotgan dorivor o'simliklarimizni saqlash va ulardan samarali foydalanishdan iborat.

Strategiyada qarovsiz hayvonlarni identifikatsiyalash va vaksinatsiyalash tizimini joriy qilish, ularni saqlash bilan shug'ullanuvchi 14 ta pitomnik faoliyatini yo'lga qo'yish ham belgilangan. Bu bo'yicha yurtimizda katta muammo mavjud. Ayni paytda bu yo'nalishda vazirlik tomonidan qaror loyihasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Yana savol tug'ilishi mumkin, qarovsiz hayvonlarni saqlashga mo'ljallangan pitomniklar tashkil etish atrof-muhit muhofazasiga qanchalik ta'sir ko'rsatadi? 2022-yildagi o'rganishlar davomida 2 million 615 mingga it va 58 mingga mushuk yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinatsiya qilingan.

Shuningdek, joriy yilda Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda qarovsiz qolgan yoki uyda saqlanayotgan itlar tishlashidan murojaat qilgan fuqarolar soni o'rganildi. Unga ko'ra, 2022-yilda bunday murojaatlar

**Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, atmosferaga yiliga 2,2 million tonnaga yaqin zararli tashlanma chiqariladi. Ularning 9 ming tonnaga yaqini sanoat korxonalari, 2,1 million tonnadan ortig'ini esa transport vositalari hissasiga to'g'ri keladi.**

soni 170 mingtani tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yilda qariyb ikki barobar kamaydi.

Hozirgi paytda hududlarda zamonaviy, xorij tajribasini o'rganigan holda pitomniklar tashkil etish ishlari boshlab yuborilgan. Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan Toshkent viloyatida barcha talablarga javob beradigan ikkita pitomnik tashkil etilgan.

Joriy yil 12-17-fevral kunlari Samarqandda Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash to'g'risidagi konvensiya (CMS COP14) ishtirokchilari konferensiyasining 14-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Anjumanda ko'tarilgan masalalar qatorida Markaziy Osiyoda transcheqararaviy tabiiy parklar yaratish ham muhokama etildi. Ushbu tashabbus qor qoplari, sayg'oq, morxo'r, Buxoro tog' qo'yi va ko'chib yuruvchi boshqa ko'plab yovvoyi hayvonlarni asrab qolishda juda muhimdir.

antropogen omillar ta'siri sanoat korxonalarida va transport vositalari hissasiga to'g'ri kelayotgan bo'lsa, tabiiy omil kuchli shamol ta'sirida mayda qum zarrachalari atmosferaga ko'tarilishi natijasida yuzaga kelmoqda.

O'tgan ikki yil davomida Toshkent shahri havosining keskin ifloslanishiga sabab bo'lgan omillardan biri ham ana shu tabiiy jarayon bilan bog'liq. Kuchli shamol tufayli qum zarrachalari atmosferaga ko'tarilishi bilan birga, transport vositalaridan chiqayotgan zararli tashlanmalar ortishi ham atmosferaning keskin ifloslanishiga olib kelmoqda.

Vazirlik tomonidan transport vositalaridan chiqayotgan zararli tashlanmalar miqdorini kamaytirish maqsadida yiliga ikki marta "Toza havo" oyligi o'tkazilmoqda. Birgina o'tgan yili tadbir doirasida 300 mingga yaqin transport vositasi texnik nazoratdan

**Mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish bo'yicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.**

javobgarligi oshiriladi, sanoat korxonalarida oqova suvni lokal tozalash inshootlari bilan ta'minlash choralarini ko'riladi.

Suv xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ana shu maqsadda suv iste'moli hisobini yuritishda "Smart Water" ("Aqlli suv") chora-tadbirlar rejayi ishlab chiqiladi va suv xo'jaligi obyektlarida suv hisobini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi qurilmalar o'rnatiladi.

Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha "Suvchilar maktabi"ning 2-bosqichiga start beriladi. Birinchi bosqichda fermer

2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish vazifasi belgilangan.

Yana bir muhim jihat: tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug'orish tarmoqlarini yopiq quvurli sug'orish tizimlariga o'tkazish bo'yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish ko'rsatishini ko'rsatkichi 0,73 gacha yetkaziladi. Shu bilan birga, kanallarni rekonstruksiya qilishga budjetdan 500 milliard so'm ajratilib, kamida 1,5 ming kilometr yirik kanallarni betonlash yakunlanadi.

Uzoq muddatga mo'ljallangan suv resurslari balansini ishlab chiqish va uning ustidan doimiy monitoring o'rnatish tizimi joriy qilinadi.

Shuningdek, suvni qayta ishlash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektor jalb etiladi, dalalarga suv beradigan obyektlar tadbirkorlar (fermer xo'jaliklari va klasterlar) boshqaruviga beriladi. Qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transcheqararaviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida ikki tarafqa manfaatli faol hamkorlik davom



ravishda yurtimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlarining oldini olish, ichimlik suvni tejash borasida qator hujjatlar qabul qilindi va hayotga izchillik bilan tatbiq etilmoqda.

Bugun har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda, degan edi Prezidentimiz.

Hozirgi globallashtiruv jarayonidagi iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy rivojlanish atrof-muhit muhofazasida murakkab vaziyatlar paydo qilmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, har yili 7 million gektarga yaqin unumdor yer jahon qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketmoqda, 7 million kishi havo ifloslanishi ta'siridan vafot etmoqda. 2025-yilga borib esa dunyo aholisining yarmidan ko'pi sifatlari suvdan foydalana olmay qolish prognozlarini ham yo'q emas.

Qayd etish kerak, keyingi yillarda mamlakatimizda qabul qilinayotgan, aniq maqsad va vazifalarni o'zida jamlagan farmon va qarorlar, tasdiqlangan dasturlar ijrosi doirasida ko'rilgan chora-tadbirlar ijobiy samara bermoqda. Jumladan, 2017-2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini



Konferensiyada mintaqamiz davlatlarida nafaqat noyob hayvonlarni asrab qolish, balki yo'qolib ketgan turlarni tiklash masalalarida olib borilayotgan ishlar ham muhokama etildi.

Prezidentimizning tadbir ishtirokchilariga yo'llagan murojaatida Ustyurt platosi kengliklarida yashagan va inson omili ta'sirida yo'qolib ketgan Osiyo qoplari populyatsiyasini qayta iqlimlashtirish boshlanishi ma'lum qilindi.

Bu masala shunisi bilan muhimki, yo'qolib ketgan turga tegishli hayvonlar boshqa mintaqadan keltirilib, shunchaki iqlimga moslashtirilmaydi, balki unga mos ozuqa zaruriyatini berish bo'yicha ham ko'plab ishlar qilinadi. Bu esa ekotizim barqarorlashishiga olib keladi.

Strategiyada belgilangan muhim vazifalardan yana biri yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlarini o'rnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish, 14 ta ekologik toza hudud rejimini joriy qilishdir.

Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, atmosferaga yiliga 2,2 million tonnaga yaqin zararli tashlanma chiqariladi. Ularning 9 ming tonnaga yaqini sanoat korxonalarida, 2,1 million tonnadan ortig'ini esa transport vositalari hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy yilda iqtisodiyot tarmoqlaridan atmosfera havosiga tashlanayotgan zararli tashlanmalar miqdorini bir yarim foiz qisqartirish belgilangan, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi mas'ul xodimi Nozim Nosirov. — Bunga erishish uchun 122 ta sanoat korxonasida chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish orqali ularning ish samaradorligini 95 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Yangi tashkil etilayotganlarida esa bu turdagi uskunalarining tozalash samaradorligi 99,5 foiz bo'lish talabi belgilanmoqda.

Atmosfera havosining ifloslanishi tabiiy va antropogen omillar ta'sirida bo'ladi. Ya'ni

o'tkazildi. Bu boradagi ishlar joriy yilda ham izchil davom ettirilyapti.

Iqlimdagi har bir o'zgarish bevosita suv bilan bog'liq, — deydi Toshkent shahri Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bo'lim boshlig'i Orzuqul Turobov. — Shu jihatdan kelib chiqib, strategiyada sanoat korxonalaridan chiqadigan oqova suvlarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish maqsadida lokal suv tozalash inshootlarini qurish va modernizatsiya qilish vazifasi qo'yilgan.

Ayni paytda tozalash samaradorligini 85 foizdan kam bo'lmagan holda amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi. Ana shu maqsadda shahardagi 140 ta sanoat korxonasi to'liq o'rganildi. Ulardagi lokal suv tozalash inshootlarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli topsiqlar berildi.

Eng ko'p suv sarflanadigan joylardan biri avtomobil yuvish shoxobchalaridir. Poytaxtimizda 300 dan ortiq ana shunday shoxobcha mavjud. Hozirgi kunda yerosti suvlardan kamroq foydalanish maqsadida aylanma suv tizimini joriy etish belgilanib, bu turdagi barcha shoxobchalarga ogohlantirish xatari yuborildi. Ayni paytda aylanma suv tizimini o'rnatish bo'yicha kelishuvlar imzolanoqda.

Bundan tashqari, oqova suvni tozalash bo'yicha Toshkent shahridagi birinchi va ikkinchi toifadagi xavfli 28 ta korxonada lokal suv tozalash inshooti qurildi. Natijada atrof-muhitga 100 ming metr kub oqova suv tozalanmasdan tashlanishining oldi olindi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi islohotlar yurtimizda ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir etuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgani bilan muhimdir. Binobarin, kelajak avlod toza havodan ko'ksi to'lib, to'yib nafas olishga haqli.

Qaror va ijro

KUKUN METALLURGIYASI

sanoatning bu yo'nalishida 2030-yilga borib 200 million dollarlik loyihalar hisobiga 25 ta yangi mahsulot turlari ishlab chiqariladi



Abdulla XURSANOVA, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati bosh direktori

Yaqinda mamlakatimizda kukun metallurgiyasini rivojlantirish maqsadida 2024-2030-yillarga mo'ljallangan dastur tasdiqlanib, mamlakatimizda rangli va nodir metallardan qattiq, o'tga chidamli qotishmalar hamda nanokukunlar olishni yanada rivojlantirishning yangi bosqichiga asos solindi.

Dasturga muvofiq, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Nodir metallar va qattiq qotishmalar ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasida 4 ta yo'nalishda umumiy qiymati 200 million dollar bo'lgan loyihalarni amalga oshirish hisobiga 2030-yilda 25 ta yangi mahsulot turi ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Jumladan, yiliga 7 turdagi 30 ming dona o'tga chidamli molibden va volfram qotishmasi, 4 turdagi 30 ming tonna mis va rut asosidagi materiallar, 8 turdagi 40 tonna qotishma kukunlar hamda 6 turdagi 6,6 ming tonna tekkesar po'lat qotishmalar, metall prokat va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Shu tariqa kukun metallurgiya sohasidagi mahsulot hajmi 2030-yilga borib 2,35 trillion so'mni tashkil etadi. Shuningdek, 26 yo'nalish bo'yicha turli metallar asosida kukunlar va ulardan tayyorlanadigan yangi turdagi mahsulotlarni olish texnologiyalarini o'zlashtirish bo'yicha ilmiy-innovatsion izlanishlar qilinadi. Joriy yilda shu maqsadlarga kombinatning Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jam'armaci hisobidan 38 milliard so'm yo'natiladi.

Mahsulotlarning dunyo bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash hamda global kompaniyalarning yuqori qo'shilgan qiymatli noyob materiallarni yetkazib berish zanjiriga kiritish uchun yuqori pog'onali sifat menejmenti, laboratoriya sinovlari va ishlab chiqarish jarayoniga yuksak talablarni qamrab olgan IATF 16949 sifat sertifikatini joriy etiladi. Shu nuqtayi nazardan hozirgi paytda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida dunyoning yetakchi ilmiy va ishlab chiqaruvchilari

Sanoat va nanotexnologiyalar taraqqiyoti bilan uning yana bir yo'nalishi — kukun ushlab chiqarish — kundan ushlab chiqarish materiallarga ham talab keskin ortib boryapti. Kukun metallurgiyasi metallar va unga o'xshash birikmalar kukunlarini, ularning aralashmalaridan yarim va tayyor mahsulotlarni zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslangan holda ishlab chiqarish sohasidir. Bunday materiallardan olingan "g'ayrioddiy" tuzilmalar va maxsus xususiyatli materiallar sanoatning yangi yo'nalishlari rivojlanishiga keng imkoniyatlar eshigini ochadi.



jamiyatiga a'zo bo'lish borasida bajarilayotgan ishlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Dasturni amalga oshirish evaziga nodir va rangli metallarni qazib olishdan tortib, ular asosida tashqi va xorijda barqaror talabga ega bo'lgan yangi, yuqori sifatli va qo'shilgan qiymatli, raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarishga bo'lgan uzluksiz texnologik zanjir yaratiladi.

Mamlakatda yagona, MDHda eng yirik korxonada

Respublikamizda kukun metallurgiyasini texnologik ishlab chiqarish imkoniyatiga ega yagona korxonada Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining Nodir metallar va qattiq qotishmalar ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasidir. U ayni paytda MDHda volfram va molibden boyitmalarini chuqur qayta ishlash bo'yicha tugallangan texnologik zanjirga ega eng yirik korxonadir.

Birlashmada sanoat eritmalardan volfram va molibdenni sorbsiyalash, volframni boyitmalarni avtoklavda soda bilan qayta

ishlash, sheyelit boyitmalardan volfram simlar ishlab chiqarish, porshen halqalarini vakuum bilan qoplash uchun uzun o'lchamli molibden elektrodlar ishlab chiqarish kabi o'xshash bo'lmagan texnologik jarayonlar amalga oshiriladi.

Bunga misol tariqasida 2020-yil iyun oyida ilk bor so'fagi 99 foizga teng palladiy kukuni olinganini keltirish mumkin. Buning uchun 17 ta texnologik jarayonni bajarishga to'g'ri keldi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida past konsentratsiyali elektrolit eritmalardan yuqori tozalikka ega bo'lgan sof palladiy kukunini ajratib olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqildi. Samaradorlik ham chakki emas, 80 foizni tashkil etdi. Bu nodir metall tibbiyot, elektronika, mashinasozlik va kimyoviy ishlab chiqarish tarmoqlarida keng qo'llaniladi.

Kombinat olim va mutaxassislarining uzoq yillik izlanishlari, ilmiy tadqiqotlari tufayli 2022-yili platina ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha ham mualliflik huquqi olindi. Natijada kombinatda Yer yuzida oltinga nisbatan uch barobar kamroq uchraydigan noyob metallarni tayyorlash texnologiyasini joriy etishga yo'l ochildi. Shu paytgacha dunyoda 5 ta yirik platina ishlab chiqaruvchi davlat mavjud bo'lsa,



O'zbekiston oltinchi mamlakat sifatida ular safiga qo'shildi.

Bunday misollar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Bugungi kunda 10 dan ortiq nodir mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish texnologiyasiga oid mualliflik huquqiga egaligi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning ilmiy-muhandislik salohiyatidan dalolat beradi.

Yaqin tarixga nazar solsak, 2016-yilga kelib, sobiq "O'ZKTJM" jamiyati asosiy texnologik uskunalarning 95 foizi jismoniy eskirishi oqibatida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish 15 foizgacha tushib ketdi, shu bilan birga, molibden va volframning jahon bozorida narxlar ikki barobar pasayishi oqibatida moliyaviy nochorlik yuzaga keldi.

uni saqlab qolish hamda noyob uskuna va texnologiyalarni yangilash, samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'ZKTJM" jamiyatining 100 foiz aktivlarini Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga o'tkazish bo'yicha qarori qabul qilindi. Keyinchalik uning negizida Nodir metallar va qattiq qotishmalar ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Prezidentimizning 2018-yil dekabr oyida Koreya Respublikasiga davlat tashrif doirasida imzolangan memorandumga muvofiq, birlashma huzurida Koreya sanoat texnologiyalar instituti (KITECH) bilan hamkorlikda O'zbek-Koreya nodir metallar va qattiq qotishmalar ilmiy-

texnologik markazi vujudga keldi. Hozirgi kunda markazda 5 ta laboratoriya va sanoat tajriba sexi faoliyat yuritmoqda. O'tgan yili markazni rivojlantirish maqsadida Koreya Respublikasining ODA (Official Development Assistance) dasturi hisobidan 11,6 million AQSH dollari miqdorida grant ajratish bo'yicha kelishuvga erishildi. Mazkur grant asosida Koreya nodir metallar instituti (KIRAM) tomonidan yarim sanoat ishlab chiqarish uskunalarini yetkazib beriladi hamda ushbu mamlakat ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mutaxassislari bilan birgalikda innovatsion loyihalarni amalga oshirish yo'lga qo'yiladi. Shu kunlarda markazning tajriba-sinov sexini "aqli" ishlab chiqarishga aylantirish maqsadida zamonaviy axborot-texnologiya uskunalarini bilan jihozlash ishlari davom etmoqda.

Eksport imkoniyatlari ham kengayadi

Hozirgi paytda dunyo metallurgiya sanoatida yangi turdagi mahsulotlar, nano'lchamdagi materiallar qo'llanilishiga talab oshib bormoqda. Optik, mexanik, elektromagnit va kimyoviy xossalari oddiy materiallardan farqli nanomateriallar yangi ishlab chiqarish yo'nalishlariga asos bo'lmoqda. OKMK ushbu sohada mavqei yanada mustahkamlamoqda.

Jumladan, kombinat olimlari tomonidan volfram nanokukunlarini ishlab chiqarish texnologiyasiga ixtiro patenti olindi. Erish harorati 3400 daraja bo'lgan volframning nano'lchamli zarrahalarni sanoat usulida ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilib, ishlanma qattiq qotishmalar, xususan, yangi turdagi kesuvchi va metallarga ishlav beruvchi asboblarni ishlab chiqarishga joriy etildi.

Aviatsion sohada qo'llaniladigan renyiy metali, po'lat ishlab chiqarishda zarur ferromolibden, elektr texnikasi va avtomobilsozlikda ishlatiladigan mis-xrom bronza, tog'-kon sanoatida foydalaniladigan

burg'lash tojarini kukun texnologiyasi asosida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Koreya Respublikasi kompaniyalari bilan hamkorlikda yiliga 4,5 million dollar qiymatda avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish mahalliyashtiriladi. Bunda zamonaviy texnologiya transferi qilinib, kukun metallurgiyasi asosida shakli murakkab turli detallar o'zlashtiriladi va respublikada po'lat detallar kukun metallurgiyasi yo'lga qo'yiladi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati o'zini o'zi xomashyo bilan ta'minlash inobatga olinib, Samarqand viloyatida joylashgan Ingichka volfram konining yerosti maydonlaridan foydalanish huquqi to'liq kombinatga berildi. Bundan ikki yil oldin Ingichka boyitish fabrikasining birinchi bosqichi ishga tushirilib, texnogen chiqindilardan yiliga 100 tonna volfram konsentratini ishlab chiqarish boshlandi.

Yaqin istiqbolda ushbu fabrikaning ikkinchi bosqichi foydalanishga topshirilib, volfram konsentratini oshib hajmi 280 tonnaga yetkaziladi. Bu respublikaning volfram xomashyosiga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplaydi.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida kukun metallurgiyasini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan dastur ijrosini ta'minlash maqsadida Nodir metallar va qattiq qotishmalar ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasida mahsulot ishlab chiqarishning umumiy qiymati 2023-yildagi 610 milliard so'mdan 2030-yilga borib, 3 trilyon 474 milliard so'mga (5,7 barobar o'sish) yetadi.

Bunda mavjud quvvatlarda volfram va molibden uch oksidlarini yuqori ko'rsatkichga, kamida 99,5 foizga yetkaziladi. Ushbu konsentratlardan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2024-yildagi 625 milliard so'mdan 1 trilyon 122 milliard so'mga oshadi. 450 dan ortiq yuqori malakali yangi ish o'rmi yaratiladi.

Kukun metallurgiya mahsulotlariga ichki talab to'la qondirilib, importni keskin qisqartirish bilan birga, yiliga 70 million dollarlikdan ko'proq mahsulot eksport qilinadi.

Hududlar hayoti

JINOYATCHILIKDAN XOLI MAHALLA

Odatiga ko'ra, Abdurashid ota kech yotsa-da, erta turadi. Bugun ham hali azon chaqirilmadan uyg'onib, bir oz hovli aylandi. Tahorat olib, bomdodni o'qigach, doimgidek mahallani ko'zdan kechirishga otlandi.

— Ha, huv narigi boshda yashaydigan Ahmad tog'ani bilasiz? — O'zimning Ahmadni, xo'sh? — Shu kishining qudasi to'y hozirligini boshlab qolibdi. Nabirasiga beshik olib borishni niyat qilgan ekan. Beshik buyurtma qilib ketgan. Adashmasam, erta-inda to'y. Shunga vaqtida yasab beray, deb turibman-da. — Ey, qaragin, bolam, eslatmasang, yodimdan ham ko'tarilay debdi. Qarichilik. Qaysi kuni to'ygga aytgandi. Nasib, to'y bo'lsin. Bunday yurgun to'y-hashamlar yarashadi. Ilohim, ishlarimga doim baridoran kelib, har bir xonadonda beshik tebratilib, ona allasi aytilsin. — Qo'llarini keng ochib, duo qilarkan, bundan beshiksoz Hikmat ustani ko'ngli shod bo'ladi. Otaning olqishidan quvvat oladi. Hikmatga bu hunar ota-bobalaridan meros. Bir necha askri, sulula bu an'anani davom ettirib keladi. Otasidan so'ng Hikmat yoshligiga borib, bir-ikki boshqa ish qilish harakatiga tushdi. Xorijga borib, ko'proq pul topib kelish niyati ham yo'q emasdi. Ammo qaysi ishini qilmasin, baribir hech o'xshamadi. Topganida baraka



bo'lmadi. Shu bois, kattalarning nasihatiga quloq tutib, otasidan qolgan teshani qo'lga oldi. Beshik yasashni boshladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, hali o'ttizga kirmagan usta qo'li qo'lga tegmaydigan ishlab chiqarish mahallasi. Shuning ortidan yaxshigina daromad topib, turmush tarzini ham yaxshilab oldi. Bugun mahalladagi qiziquvchi yoshlarga kasbini o'rgatib kelmoqda. Bundan tashqari, u mehri bilan yasagan beshiklar Shahrisabz bozorida o'z o'miga ega. Hatto xoridorlar uning xonadoniga kelib, buyurtma berib ketadi. Gohida tengdoshlari hazillashib, "Usta, chet elga mardikorlikka bormaymizmi?", deb qoladi.

havasini ortadi. Ayniqsa, Oqsaroy majmuasi tomoshasiga kelganlar yondosh mahalladagi bunday obodlikdan ko'ngli to'ladi. Ota ingliz tilini yaxshi biladigan nabirasini ishga solib, sayyohlarni mehmonga taklif qilib, bir piyola choy ichmasdan qo'ymaydi. Bundan mamnun mehmonlarda yana bir bor bu mehribon bahra olish istagi paydo bo'lib, qayta kelishni va'da qiladi. Gohida mahallaning mohir tikuvchisi Ozoda opa tikkan milliy to'ndan ularning yelkasiga yopib, sovg'a qilib yuboradi. Bugun ham doimgidek etalabdan tayyor bo'lgan mahsulotlarni bozorga chiqarishga hozirlik ko'rayotgan Ozoda opa darvoza tarafdan oqsqolning ovozi eshitib, oldiga shoshiladi. Salom-alikdan so'ng ota kechigacha to'ning pulini berib, ishiga rivoj tilab, yo'lida davom etadi.

Abdurashid ota bugun nafaqat katta magistrallar, balki ichki yo'llar ham asfalt qilinib, ravon bo'lgani aholining og'irini yengil qilayotganini o'ylab, yuzida tabassum paydo bo'ladi. Darvoqe, mahalla yo'llari "Ochiq budget" axborot portali orqali obod qilingan. Mana, uch yildan oshibidiki, kim kelsa

yildan buyon shu ish bilan shug'ullanib, kam bo'lmadi. Farzandlarini o'qitdi, uy-joylarini yaxshilab oldi. Yaqinda yangi mashina ham xarid qildi. Dastlab o'zi, keyin qizlari, kelinlari bilan ishini davom ettirgach, tikkan to'narlari xaridorgir bo'lgani bois, buyurtmalar soni ham oshib ketdi. Endi kasanachilikni yo'lga qo'yib, mahalladagi ellikka yaqin xotin-qizning bandligini ta'minladi.

Mahallaga Sharofat opaning gullari o'zgacha chiroyli baxsh etib turganini bu yerdagilar doim e'tirof etib keladi. Oqsqol ham har safar Sharofat opaning ishlaridan bir xabarlashib, hovlisida yetishtirayotgan gullarga ko'z yugurtirib, dili yashnaydi. Opa bugun gulchilik borasida yaxshi mutaxassis ekanini Oqsaroy majmuasi atrofini bezab turgan anvoyi atir gullarga qarab ham anglash mumkin. Bundan tashqari, Namozgoh mahallasi bugun uning tashabbusi bilan gulchilarni maskaniga aylantirildi.

Abdurashid ota ko'chalarni sokin va obodligidan, oilalar xotirjamligidan ko'ngli ko'tarilib, mahalla idorasiga kirib keladi. Uning baland ovozda salom berishidanoq profilkatika inspektori Suhrob Rajabov Namozgohda barchasi joyida ekanini anglab oladi. Aslida, oqsqol mahallaga bir ko'rinish berishining o'zi odamlarni hushyorlikka chorlaydi. Kimdir janjal ko'rarib, ko'pchilikni bezovta qilsa yoki behuda biror no'jo'ya ish qilib qo'yadigan bo'lsa, eng avvalo, oqsqollar xabar topishib, murosa qilib qo'yishadi. Shu sabab bo'lsa kerak, profilkatika inspektori bo'lib bu yerga ishga kelganiga to'rt yildan oshibidiki, bir marta jinoyatchilik qayd etilmadi. Bunga yana bir sabab — hududda bekorchini o'zi yo'q. Mahallaning asosiy drayveri ham tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish. Oqsaroy majmuasi yaqinida joylashgani bois, asosan, mehmonxonalar, turli maishiy xizmatlarni yo'lga qo'yib, ish o'rmi yaratgan.

Mahalladagi hokim yordamchisi Odil Vasiyevning ta'kidlashicha, hududda kam ta'minlangan, nochor va kambag'al biror oila yo'q. Barchasining turmush tarzi yaxshilanib, o'z ish o'miga ega. Bu esa bekorchi bo'lishga vaqt qoldirmaydi. Shu bois, bugun Shahrisabz shahridagi Namozgoh mahallasi jinoyatchilikdan xoli hudud sifatida e'tirof etiladi.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ota sokin ko'chalarni bo'yab sayr qilarkan, allaqachon xonadondagi kelinlar, o'smir qizlar ko'cha eshik oldilarini supurishni boshlab yuborgan. Ular oqsqol yaqinlashishi bilan harakatdan to'xtab, salom berganicha bir zum kutib turadi. Yangi tushgan kelinlar esa ta'zim qilib, nuroniyning duosini olishga intiladi. Har safar tozilik uchun tongdanoq ish boshlanganini ko'rgan otaxonning ham dili yayraydi. Inson — go'zallik shaydosi. U istiqomat qilayotgan joy toza va ozoda bo'lgani yaxshi-da. Shunday makonda fayzu baraka bo'ladi. Dili yayrab, yurishda davom etarkan, darvozalarga zimdanda ko'z tashlab qo'yadi. Birortasida qulf-kalit yo'q.

Abdurashid ota yaxshi eslaydiki, yaqin atrofida hech kim eshikni tambalab qo'yagan. Mabodo biror kishi yangi ko'chib keladigan bo'lsa ham bu odatga tezda ko'nikadi. Sababi, o'g'ri deganlari bu ko'chalarga oralamaganiga ellik yillar bo'ldi-yov. Unda Abdurashid ota navqiron yoshda edi. O'shanda yarim tunda qo'shnisining kati qo'chqorini bir yigit o'g'irlamoqchi bo'lib, qo'lga tushib qolgandi. Shu yerning o'zida o'g'rini mahalla yigitlari rosa do'pposlamoqchi bo'lgandi shunda. Ammo nuroniyilar bunga yo'l qo'ymay, oldini olgandi. O'g'ri yigitning nasl-nasabini surishtirib, oilaviy ahvoldan xabar topgach, nochorlik sabab shu ishga birinchi bor qo'l urgani bois, tanbeh berishgandi. Kattalar o'zaro pul yig'ib, uning oilasiga yordam ko'rsatgandi. Bundan uyalgan yigit ikkinchi bor qaytib bu ishini takrorlamay, halol mehnat yo'lini tanlab ketgandi.

Ko'hna Keshdagi mahallaning nomi bejiz Namozgoh deb atalmagan. Temuriylar davrida katta sayillarda Oqsaroy oldiga ko'p odamlar yig'ilgan. Shunday paytda bu yerdagi keng maydonda ko'pchilik jamoat bo'lib namoz o'qigan...



Prezident tashrifidan so'ng

# INSTITUT QUYOSH PANELLARI ISHLAB CHIQRARISHNI BOSHILADI

mahalliy mahsulot aholi xonadonlariga  
o'rnatib beriladi



**Alisher USMONQULOV,**  
texnika fanlari doktori,  
professor

Bugun insoniyat global ekologik muammolar, tabiiy manbalar taqchilligi qarshisida turibdi. Suv, yoqilg'i-energetika zaxirasi yil sayin kamayib, ularga bo'lgan talab esa, aksincha, ortib bormoqda. Mutaxassislar buning oqibatlarini "yashil iqtisodiyot" ga o'tish orqaligina bartaraf etish mumkinligini ta'kidlayotgani bejiz emas. Chunki sayyoramizda qayta tiklanmaydigan manbalarning muqobil shakllarini yaratish, ulardan keng va samarali foydalanish davri keldi. Ekologik toza va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etishga esa zamonaviy taraqqiyot, ilg'or izlanish hamda ilmiy ixtirolar keng yo'l ochmoqda.

edi. Davlatimiz rahbarining viloyatga joriy yil 8-9-aprel kunlari navbatdagi tashrifi davomida esa yangi markazlar faoliyatiga start berildi va dastlabki mahsulotlar ishlab chiqarilishi boshlandi. 9-aprel kuni oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iroq Sharipov yangi ochilgan markazlarda bo'lib, amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi.

Xomashyo ham o'zimizda tayyorlanadi

Institutda "Muqobil energiyalarni tadqiq etish ilmiy-amaliy markazi" ishga tushirilishi energetika muammolarini tadqiq etish, sohadagi ishlarni amaliyotga yo'naltirish, muqobil energiya va energiya tejamlilikni targ'ib etish borasida katta qadam bo'ldi. Ayniqsa, o'z nomi bilan ta'lim va ishlab chiqarishni uyg'unlashtirayotgan bu markaz ayni shu sohada malakali kadrlar tayyorlashga keng yo'l ochadi. Yurtimizda muqobil energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqarishda mahalliy lashtirish darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Markazni o'z vaqtida va sifatli ishga tushirish uchun Xitoydan zarur uskunalar keltirilib, o'rnatildi va yangi infratuzilma bilan ta'minlandi. Qisqa vaqtda mahsulot ishlab chiqarishga ham

Ilmiy-amaliy markazda ish ikki smenada tashkil etilgan. Korxonada jami 100 kilovattli 200 donadan ortiq quyosh panellari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu yerda 54 talaba uchun yangi ish o'rni yaratildi. Quyosh panellarini iste'molchilarga o'rnatib berish xizmati ham mavjud. Buning uchun professor-o'qituvchi va talabalaridan iborat maxsus ishchi guruhlar tashkil etilgan.

Markaz xodimlari va institutning Energetika kafedrası professor-o'qituvchilari Yevropa Ittifoqi "ERASMUS+" fondining ta'limda salohiyatini oshirish dasturi doirasidagi grant loyihasini yutib oldi. Ushbu "O'zbekistonda quyosh energiyasi bo'yicha bakalavrlar uchun maqsadli o'quv dasturini ishlab chiqish" loyihasini amalga oshirish muddati 2024-2026-yillarga mo'ljallangan bo'lib, yangi formatdagi o'quv-ilmiy laboratoriyalar dasturlarini yaratish belgilangan.

Kadrlar tayyorlash zanjiri

Talabalar o'rganmalarini amaliyotda sinab ko'rishi albatta, foydali. Bu uning bilimni mustahkamlab, tajribada o'z ko'zi bilan ko'rishi, ish jarayonida toblanib borishida juda muhim. Odatda, talabalar o'qish davrida ishlashni istamaydi, bor e'tiborini bilim olishga qaratadi. Bu bir tomondan yaxshi, ammo amaliyot ham



start berildi. Tayyor mahsulotlar tegishli tartibda testdan o'tkazilib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan muvofiqlik litsenziyasi olindi. Hozir naafaqt tayyor mahsulot, balki xomashyoni mahalliy lashtirish bo'yicha ham ishlar olib borilyapti.

zarurligini unutmaslik kerak. Shu bois, yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida ilm-fan va amaliyot integratsiyasiga katta e'tibor qaratilyapti. Universitetning o'zida ham o'qib, ham amaliyot o'tab hatto ishli bo'lish yig'it-qizlar uchun qulay sharoitdir.



Jizzax politexnika institutida ish boshlagan "Jizzax yoshlar texnopark"da ham shunday muhit yaratilgan. Yangi formatdagi o'quv, ilmiy va ishlab chiqarish zonasini, yoshlarning g'oyalarni amaliyotga joriy etish transferi, akseleratsiya markazlari, virtual laboratoriyalar, muhandislik ta'limi kurslari eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan.

Texnoparkda yoshlar zamonaviy kasblarni o'rganib, faoliyatga kirishishlari mumkin. Masalan, yangi ochilgan "Intellectual transport tizimlari va mexatronika" ilg'or muhandislik maktabida intellektual transport tizimlarini mahalliy sharoitda qo'llashning sinergetik jarayonlar asosidagi yangicha yondashuvi yo'lga qo'yilgan. Muhandislik maktabi Yevropa Ittifoqining xalqaro "ERASMUS+" dasturi doirasidagi yirik loyiha mahsulidir. Bu yerdan zamonaviy muhandislar yetishib chiqadi. Shuning uchun mazkur ilmiy-tadqiqot markazi eng so'nggi rusumdagi laboratoriya uskunalar bilan ta'minlangan.

Talabalar naafaqt oliy o'quv yurti binosida, balki viloyatdagi turli korxonalarda ham amaliyot o'tash imkoniyatiga ega. Buning uchun institut tomonidan turli hamkorlik bitimlari, shartnomalar imzolangan. Ulardan biri "Jizzax erkin iqtisodiy zona"dir. Ayni vaqtda mazkur zona viloyat sanoatini rivojlantirishda katta o'rin tutmoqda. Qolaversa, u mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatimizda uchinchi, eksport hajmi bo'yicha oltinchi o'rinda turadi. Keyingi yillarda iqtisodiy zona faoliyati takomillashtirilib, ishlab chiqarishga qulay imkoniyatlar yanada kengaytirildi. Hozir bu yerda 33 loyiha amalga oshirilib, 7 670 kishi ishlabmoqda.

"ADM Jizzakh" MCHJ sanoat zonasida samarali faoliyat yuritayotgan korxonalardan biri. Institutimiz bitiruvchilaridan 300 nafardan ortig'i "ADM Jizzakh" avtomobil ishlab chiqarish zavodida rahbarlik lavozimida, muhandis-texnolog, yig'uv-chilangar, bo'yochi kabi vazifalarda faoliyat olib bormoqda.

Korxonaning birinchi bosqichida yirik uzelli yig'uv yo'lga qo'yilgan edi, joriy yil mart oyida yangi bino va quvvatlar ishga tushirildi. Ya'ni yuqori texnologiyalarni jalb qilgan holda shtamplash, payvandlash, bo'yash va yig'ishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish jarayoni tashkil etildi. Korxonada asosan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniyadan keltirilgan yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlangan. Zavodda 30 ta robot bor, ishlab chiqarish jarayoni 33

foiz avtomatlashtirilgan. Avtomobilning yurish qismlari sozilgini, statik va dinamik tormoz tizimini tekshirish jihozlari o'rnatilgan.

Davlatimiz rahbari Jizzax viloyatiga tashrifi davomida ushbu korxonada ham bo'lib, mahalliy lashtirish darajasini oshirish, yurtimiz sanoat korxonalarini bilan kooperatsiyani kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Umuman, korxonada yiliga 100 mingga yengil avtomobil ishlab chiqarish quvvati yaratiladi. Natijada kelgusida ish o'rinlari soni 3 mingga yetkazilishi ko'zda tutilgan.

Institutimizning ana shunday korxonalar bilan faoliyati malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu Jizzax viloyatida avtomobilsozlik sanoatini yanada rivojlantirish, malakali muhandislar maktabini yaratish va fan-ta'lim integratsiyasi uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, "BYD factory Uzbekistan" qo'shma korxonasi bilan ham anglashuv memorandumi imzolandi. Memorandum rejisidagi bilimlarga asoslangan, turli harakatlarni kompyuter boshqaradigan mashina va tizimlarni yaratish hamda ishlatish kabi masalalar yechiladi.

Ushbu markazda avtomobilsozlik sanoati ishlab chiqarish korxonalarini mutaxassislari malakasi ham oshirilmog'da. Qolaversa, institutimizning 4 ta intellektual transport tizimi, mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish, transport vositalari muhandisligi, avtomobilsozlik va traktorsozlik, zamonaviy muhandislik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yiliga 120 dan ortiq yosh mutaxassisning startap loyihalari akseleratsiyadan o'tkazilishi hisobiga, o'z o'zini band qilish mexanizmi yaratildi.

Ikkinchidan, "BYD factory Uzbekistan" qo'shma korxonasi yangi ishga qabul qilingan xodimlar zamonaviy muhandislik dasturlari yordamida o'qitiladi. Bunda korxonada talabalaridan kelib chiqib, hamkorlikda belgilangan dasturiy paketlar yordamida maqsadli malaka oshirish dasturi yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda aynan ushbu zavodda institutimiz Transport fakulteti bitiruvchilarining 50 dan ortig'i ish bilan ta'minlandi.

Ham amaliyot, ham daromad

Yurtimiz iqtisodiy rivojlanib, aholining yashash sharoiti oshgani sari transport vositalariga talab o'sib borayotgani sir emas. Bu, ayniqsa, markaziy ko'chalarda uzundan uzun tirbandliklar, jamoat transportiga bo'lgan talab, avtomobillardan ekologiyaga chiqayotgan zaharli gazlar miqdori oshishiga olib kelyapti.

Jizzax politexnika institutida tashkil etilgan Shahar transport tizimini rejalashtirish markazi faoliyati ana shunday transport muammolarini tadqiq etish va unga ilmiy yechim topishga qaratilgan. Markaz ilmiy jamoasi 2021-yilda Rossiya Federatsiyasining "Simetra" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Samarqand shahar transport aglomeratsiyasi uchun yo'lovchilar oqimini o'rganish" loyihasini amalga oshirib, qariyb 500 million so'mlik investitsiya mablag'larini jalb qilgan edi. Hozirgi kunda esa, ilmiy jamoa Jizzax shahar jamoat transportini rivojlantirish bo'yicha loyihani amalga oshirmog'da. Jami 450 million so'mlik investitsiya jalb qilinishi rejalashtirilgan ushbu loyihada institutning 20 nafar talaba yoshlari qatnashyapti.

Keyingi paytlar Jizzax viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida "drayver" hududga aylandi. Birgina Forish tumanida tashkil etilgan bazalt klasterida yiliga 177 ming tonna bazalt toshidan maxsus tola, direkt roving, fibra, armatura, kompozit geosetka, qururlar, mat va issiqlik-izolyatsiya pitalarlari kabi 42 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmog'da. O'tgan yili 554 milliard so'mlik 45 ming tonna mahsulot tayyorlandi va uning 80 foizi AQSH, Angliya, Polsha, Italiya, Rossiya, Turkiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlarga eksport qilindi. Klasterda 1700 dan ortiq kishi ish bilan ta'minlangan.

Ular orasida Jizzax politexnika instituti qurilish materiallari va kimyoviy texnologiya fakulteti talabalari ham bor. Yosh tadqiqotchilarimiz klaster korxonalarida daromad to'pish bilan birga, ilmiy ish bilan ham shug'ullanmog'da. Ayniqsa, bu yerda ishlab chiqarish quvvatlarining yuqoriligi, eng ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlangani yoshlarimizga katta tajriba maktabi bo'lmoqda.

Shuningdek, "ROCKFIBER" MCHJ korxonasi sanoat uchun yana bir yangi loyiha start berildi. Bunda tegishli chiziqli zilchikka ega bazalt inoplar olinib, ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tkaziladi. Tolali roving bilan to'ldirilgan issiqlik izolyatsion snur olish imkoniyatlarini tadqiq qilish jarayonida institut olimlariga korxonada sharoit yaratib berilyotganini alohida ta'kidlash lozim.

Kelgusida biz yanada yorqin va samarali loyihalarni amalga oshirishni rejalashtiryapmiz. O'yaymizki, mazkur sa'y-harakatlar yurtimiz taraqqiyotini yuksaltirishdek mas'uliyatli vazifani uddalashga katta hissa bo'lib qo'shiladi. Zero, Jizzax politexnika institutida ilmiy izlanish olib borish va ilmiy loyihalarni amaliyotga joriy etish uchun barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Yuksalish pallas



**Feruza MADRAHIMOVA,**  
pedagogika fanlari doktori,  
dotsent

# BO'LG'USI PEDAGOGLARNING YANGI AVLADI

## qanday sharoitda o'qiyapti?

"O'zbekiston — 2030" strategiyasining birinchi yo'nalishi ta'lim tizimidagi islohotlar samaradorligini ta'minlash, o'qitish sifatini oshirish orqali inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, pedagog kadrlar maqomini oshirish, bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish borasida aniq vazifalar belgilangan. Bu chora-tadbirlar ta'lim tizimining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan pedagoglarning kasbiy izlanishiga rag'batini kuchaytiradi.

ishchanlik obro'si davlat himoyasida bo'lishi qonun bilan mustahkamlandi. Bu sa'y-harakatlar pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarini faoliyatini rag'batlantirish bilan birga bo'lg'usi mutaxassislarining erangi kunga ishonchini mustahkamlamoqda.

Ayni paytda Urganch davlat pedagogika institutida yoshlar 15 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 7 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olmog'da. Yangi o'quv yilidan ular qatoriga yana 4 ta yo'nalish qo'shilishi rejalashtirilmog'da. Shuningdek, institutda ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasi yo'nalishi bo'yicha ilmiy kongress ochildi.

OTM tarkibida oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichida 7 ta ixtisoslik bo'yicha tayanch doktorantura tashkil etildi. Hozir institutda ikkita ilmiy jurnal chiqarilmog'da.

Auditoriyalar zamonaviy jihozlilar bilan to'liq ta'minlangan. "Besh tashabbusxonasi", Axborot texnologiyalari parki inkubatsiya markazi, musiqa muzeyi, psixologik trening markazi, sport zali, talabalarining ijodiy ishlari ko'rgazmasi muzeyi, ayniqsa, yaqinda barpo etilgan hamda yoshlarning bilim va tajriba almashishi, dam olishi uchun go'zal go'shaga aylanib borayotgan Jadidlar bog'i bo'lg'usi pedagoglar xizmatida.



Institutning bugungi yutuqlarida xalqaro nufuzli oliy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgani muhim o'rin tutmog'da. Xususan, Sinszyan, Shensi pedagogika, Nankin texnologiyalar, Lanjou transport universitetlari

(Xitoy), Dongshin universiteti (Janubiy Koreya), Egey, Burdur Mehmet Akif Ersoy, Nejmaddin Erbakan universitetlari (Turkiya), Ozarbayjon davlat pedagogika, madaniyat va san'at hamda tillar universitetlari bilan aloqalar

yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Rossiyaning Astraxan davlat universiteti, Novosibirsk davlat texnika universiteti, Qozon federal universiteti, Belarussning Grodno davlat universiteti, Jordaniyaning Jadara universiteti bilan hamkorlik memorandumi imzolangan.

Dubayda bo'lib o'tgan "The 2023 UI GreenMetric World University Rankings" xalqaro konferensiyasida Urganch davlat pedagogika instituti Times Higher Education (THE) — universitetlarning xalqaro reytingini baholash tashkiloti a'zosisga aylandi. O'tgan yili avgustida ERASMUS platformasidan ro'yxatdan o'tdi.

Ayni kunlarda OTM hududida 400 o'ranga mo'ljallangan talabalar turar joyi qurilishi nihoyasiga yetmog'da. Kelgusi yil institutning 1000 o'ranga mo'ljallangan zamonaviy yangi o'quv binosini qurish maqsad qilingan. Shu tariqa talabalar uchun bosqichma-bosqich munosib sharoit yaratilmog'da. Bu sa'y-harakatlar sifatli mutaxassislar tayyorlash yo'lidagi ishlardir. Hademay yongilanish samara berib, maktablarimizga ishtiyiqi baland pedagoglarning yangi avlodi kirib boradi.

## Bugunning gapi

## SAHNA ORTIDAGI KUCH

## yoxud raqamli targ'ibotning ko'z ilg'amas tuzoqlari

"G'oya bilan dunyoing egallash" shiori ostida "kuchlilar" o'rtasida sezilarli, ammo ko'rinnas katta janglar ketayotgani bor gap. Bugungi kunda targ'ibotning ta'siri har qachongidan ham oshdi, chunki u raqamli texnologiyaga o'tdi. Birgina misol, facebook tarmog'idagi bizga oddiygina ko'ringan "layk" va "smayl"lar ham raqamli targ'ibot vazifasini bajarayotganini ko'pchiligimiz o'ylab ko'rmaganmiz. Kundalik turmushimizda nima uchun aynan biror kitobni o'qiyotganimiz va qaysidir filmni tanlab tomosha qilayotganimiz yoki qaysi davlatga borishni orzu qilishimizgacha o'zimizning tanlovimiz emas, targ'ibot natijasi ekanini ham bilmaymiz. Ushbu jihatlarini o'ylab ko'rar ekanmiz, dunyo olimlari XXI asrni tom ma'noda targ'ibot asri deb atayotgani bejiz emasligiga ishonch hosil qilamiz.

hokazolar. Insonlardagi ushbu o'ziga xoslik va o'xshashliklar nafaqat irqiy mansublik, balki muayyan davr uchun xoslik bilan ham bog'liq. Davrlar uchun mansubliklar yoki boshqacha aytganda, o'zaro bog'liqlik soha mutaxassislari tomonidan "avlodlar nazariyasi" deb ataladi.

## "Avlodlar nazariyasi"

"Avlodlar nazariyasi" dunyoqarashi, qiziqishi va xarakteri, kiyinish va o'zini tutishidagi o'xshashlik va o'ziga xoslik asosida muayyan davrga (tug'ilgan yili hisobidan) tegishli insonlarni alohida qatlam sifatida ajratish haqidagi nazariyadir.

Inson xarakteri va dunyoqarashi 12-14 yoshgacha yashagan muhit va tarbiyalangan sharoitiga bog'liq bo'ladi. Chunki aynan shu yoshda har bir bolada insoniy qadriyatlar va dunyoqarash shakllanadi va u butun umri davomida o'zgaraydi.

Avlodlar almashtirish taxminan har 20 yilda yuz beradi. Bu sikk 4 avlod davom etib, har 80 yilda xarakter va qadriyatlar sikk boshidagi birinchi yilgiga o'xshab bo'lgan beshinchi avlod (yangi sikk) shakllanadi.

Bugungi kunda biz tushunmaydigan — ko'chada do'stlari bilan o'ynashni yoqtirmaydigan, telefonga mukkasidan ketgan, virtual olamda yashaydigan, telefonda gaplashishdan ko'ra, xabar jo'natishni yoqtiradigan avlod 2 avlod vakillari yoki "raqamli avlod" deb ataladi.

Bu avlod vakillari uchun barcha sohalarida individual yondashuv muhim, ya'ni ular har bir insonga alohida individual qarash lozim, degan g'oya asosida yashaydi. Ular yolg'izlikni, yakkalikni yaxshi ko'radi, odamlar orasida, real jamiyat ichida o'zini noqulay sezadi. Atrofta minglab odam bo'lsa-da, lekin qo'lida mobil aloqa vositasi yoki internet bo'lmasa, o'zini butun dunyodan uzilgan his qiladi. Yaponiyalik olimlar bu kabi insonlarga "xikikomori" (yolg'izlikda yashovchi)lar deb ta'rif beradi.

Bu avlod vakillari orasida mustaqil bo'lishga intilish yoshi tobora yoshlar bormoqda. Bundan bir necha yil avval bolalar o'smirlikka qadam qo'yganda, ya'ni 12-15 yoshlar oralig'ida mustaqil bo'lishga intilar edi. Bugungi kunda esa ayrim yoshlarning hatto o'smirlik davriga o'tmasdan avval ham o'zini individual shaxs sifatida tan olishini istaydiganlari ko'zga tashlanmoqda. Bu avlodga xos yana bir xususiyat ular atrofdagilarga nisbatan shaxsiy fikr va tashkining borligidir. Ularga axborotni publisistik-ommabop va so'zlashuv uslubida yetkazish maqsadga muvofiq.

"Raqamli avlod" vakillarining boshqa avlod vakillaridan asosiy farqli jihatlaridan biri ma'lumotlarni asosan, (clipthinking) ko'rish orqali qabul qilishidir. Bu qisqa ma'lumotlarni yorqin ranglarda, aniq bo'lgan ko'rinishlarda qabul qilish va eslab qolish bilan tushuntiriladi. Ya'ni audio va vizual ma'lumotlar qisqaligi va muayyan ketma-ketlikda berilishi ma'lumot haqida mustaqil tasavvurga ega bo'lish, obyektiv xulosa chiqarish va vaziyatni to'g'ri baholash imkonini bermaydi. "Raqamli avlod" internetga shu qadar ishonadiki, hatto dastlabki daqiqalarda ma'lumotlarni o'zi kabi insonlar tayyorlagani, unda subyektiv yondashuv yoki oddiygina yolg'on bo'lishi mumkinligi haqida o'ylab ham ko'rmaydi. Ma'lumotni fikrlash, xulosa chiqarish uchun emas, faqatgina "ma'lumot" deb qabul qiladi. Shuning uchun ham ushbu avlod vakillarida ma'lumotlarni qabul qilish tezligi nihoyatda yuqori, uni xotirada saqlash muddati esa qisqa bo'ladi.

Bugungi kunda internetni cheklash va taqbiqlash, ekranlarda uzatlayotgan turli suyuqmatli chegaralash imkonio yo'q. Internet barcha foydanchilarga hayotini oddiylashtirish hamda ijtimoiy faolligini osonlashtirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqqay turib, internet orqali turli xaridlar, virtual dunyoga sayohat qilish, istalgan mamba bilan tanishish, ta'lim olish, xizmat ko'rsatish va shu kabi faollaytarni amalga oshirish mumkin.

Bugun voyaga yetayotgan yosh avlod, shubhasiz, fan-texnika yaratgan ulkan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda barcha sohalaraga chuqur kirib, natijalaridan samarali foydalanib, tafakkuri va turmush tarzini o'zgartirishga intilmogda. Ammo o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldiga, ayniqsa, kelajagimiz uchun butun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga qodir, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylaniib borayotgan yoshlarimizni umummilliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash ishini har doimgidan ham dolzarb vazifa qilib qo'yamogda. Bu esa barchamiz uchun jiddiy mas'uliyatdir.



Muhayyo ISMOILOVA,  
Respublika Ma'naviyat va  
ma'rifat markazi  
Toshkent shahri bo'limi rahbari

Targ'ibot va iqtisodiyot har qachongidan ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bugungi davrda raqamli targ'ibot yordamida odamlarning ongi uchun kurash shu darajada ko'rinnas bo'lib ketganki, siz biror narsa yoki harakatning targ'iboti bo'layotganini anglamay qolishingiz mumkin. Zero, eng natijaviy targ'ibot ko'rinnas targ'ibotdir. Eng xavfli jihati esa targ'ibotning bu ko'rinishi auditoriya tanlamaydi. Uning ta'sir qilish operatsiyalari shunchaki yangi vositalar targ'ibotidan iborat emas. U manipulyatsiyaning rivojlangan shaklini ifodalaydi, bu "targ'ibotchi"larga cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi — ham yaxshi, ham yomon tarafdin. Biz hozir butun jamiyatda kechayotgan raqamli targ'ibot davri boshida turibmiz. Ushbu yangi shaklning kelib chiqishi yarim tasodify bo'lsa-da, u ergashtirib, muayyan qolipga solib bo'lmaydigan odamlarni manipulyatsiya va ekspluatatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

## Biz anglamaydigan raqamli targ'ibot aslida, qanday?

Kundalik hayotimizning har daqiqasida muayyan narsa yoki hodisa targ'ibotga duch kelamiz. Chunki targ'ibot tom ma'noda muayyan fikrni ilgari surish bo'lib, kishilik jamiyati bilan birtara rivojlanib kelmoqda. Ya'ni biror voqeaning tahlili va unga munosabatning boshqalarga yetkazilishi, oddiy aytganda, kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa ham targ'ibot hisoblanadi. U asrlar davomida madaniy, ijtimoiy, diniy va siyosiy qarashlar bilan birgalikda sayqallanib kelmoqda.

Raqamlashtirish targ'ibot uchun makon va zamon chegarasi muammosini yo'q qildi. Hozir jamiyat faoliyatining barcha sohalariga taalluqli axborot xizmatlari tizimi vazifasini bajarishi ortidan internetning yoshlar ta'lim-tarbiya muhiti hamda aholi psixologik hayot tarziga ta'sir darajasi ham oshib bormogda.

Oddiy misol. Aholi bilan davra suhbatlarining birida o'rtta yoshdagi ayol oldimga kelib: "Kichikligida farzandimning "Masha va maymoq" multfilmidagi Mashaga o'xshab qaysar, o'jarligi barchamizga yozar va o'xshash odatlaridan qunovardik. Hozir u 9 yoshda, lekin inji, qaysar va cho'rkesarligi yo'qolmadi. Afsuski, farzandimning bu inji xarakteri o'sha multfilm orqali shakllangan kech pay-qadim", deb qoldi. Yoki 4-8 yoshdagi bolaga "Kimga o'xshashni istaysan?" degan savol bersangiz, "o'rgimchak odam", "kapitan Amerika", "Betmen" kabi personajlarni sanab o'tadi. Nima uchun? Chunki internetdan "bolalar uchun film" so'rovini bersangiz, ushbu filmlarni taqdim etadi. Biz buni o'zimizning tanlov deb qabul qilamiz. Lekin aslida-chi?

Savdoda ham OAV orqali qayta-qayta targ'ibot qilingan, maqtalgan mahsulotlarni tanlaymiz. "Yaxshi mahsulot reklama muhoj etmas" kabi shiorlarni unutmaymiz.

Bularning barchasi aslida, raqamli — 2.0 targ'ibotning iste'molchilari ongiga qilgan ta'siri ekanini o'ylab ham ko'rmaymiz.

## 2.0 targ'ibot nima?

2.0 targ'ibot san'a'ti yoki jarayonning ichiga berkitilgan yuksak ilm (targ'ibot)dir. Bugun dunyoning rivojlangan mamlakatlarda boshqaruv avtoritaridan demokratik tizimga o'tgan, xalq va jamiyatning fikr-mulohazalari, tanlov va xohish-istaklari bilan kelishib ishlash prinsipiga asoslangan bir davrda avvalgi manipulyatsion boshqaruv "berkitilgan targ'ibot" — ya'ni



2.0 targ'ibot orqali amalga oshirilmoqda. 2.0 targ'ibotning eng asosiy prinsiplaridan biri — uning targ'ibot ekanini yashirilgani. Unda targ'ibot qilingan g'oyaga ijodiy ruh berilib, internetdagi maqomlar, ijtimoiy roliklar, she'rilar, qo'shiqlar va ularga ishlangan klip, bolalar uchun multfilm, ertaklar va shu kabilarning ichiga joylashtiriladi. 2.0 targ'ibot ta'siriga tushgan odam o'zi bilmagan holda ongi orqali tinglayotgan yoki ko'rayotgan targ'ibotga refleks tarzida ergashadi.

Ammo unutmashlik kerakki, OAV va asosan, internet (ijtimoiy tarmoq) orqali beriladigan har

usuli borligi ta'kidlanadi. Biri ma'lumotni tinglashingiz bilan avtomat tarzda keladi, ikkinchisi "turkilovchi", boshqacha aytganda, "yordamlashuvchi" katalizator ta'siri orqali keladigan xulosa. Asosiy masala "yordamlashuvchi" katalizatorni iste'molchiga "zararli" ma'lumotdan olib bera olishimizdir. Zararli ishlamlar bilan kurashishda "aqli ishlanmalar"ning o'rni beqiyos.

## "Aqli ishlanma"lar nima?

Millat va xalq bilan bog'liq afsona, qadriyat, urf-odatlar nafaqat ongimizga o'rmas, balki qolgan tarix, balki muayyan maqsad yo'lidagi "aqli ishlanma" hamdir. U yordamchi kuch — unga aloqador infratizimga bog'liq bo'ladi. Misol uchun, to'g'ri nomlangan ko'chalar, muzeylar, madaniy manzillar va shu kabilar. Shuning uchun, soha mutaxassislari e'tirof etgani kabi, "inson qalbi va ongini muayyan g'oya bilan zabt etish, eng avvalo, katta va maxsus tizimlashtirilgan, mablag', kuch va aqliy manbasini mavjud "aqli ishlanma"ni talab qiladi". Ammo XXI asr "zamonaviy dunyo"da afsona va to'qimalariga ishonch pasayib, obyektivdan ko'ra, subyektiv xulosalar tezroq ta'sir qilishini ham unutmashlik zarur.

## Nima uchun raqamli targ'ibot rivojlanib bormogda?

Buning asosiy sabablaridan biri dunyoning axborot rivojlanishi va ko'prog' axborotga ega bo'lishga intilishidir. Atrofmizda bo'layotgan keskin o'zgarishlar, asl maqsadi oshkor etilmagan urushlar va tushunarsiz pozitsiyalar ongimizni har qanday axborot uchun ochiq darvoza darajasiga keltirib qo'ydi. Biz har qanday axborotni qabul qilishga tayyormiz.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, bugungi kunda jahonda bo'layotgan urushlarning deyarli barchasini gibrud urush va to'qnashuvlar deb atash ham xato bo'lmaydi. Har qanday urushning asosiy foizi mafkuraviy poligonda yuz bormogda. Jangovar harakat va to'qnashuvlar ushbu targ'ibot operatsiyalaridan chalg'ituvchi niqobdir. Targ'ibot operatsiyalari oldindan rejalashtirilgan "xulosa"ni axborot iste'molchilari ongiga mixlab qo'yuvchi "aqli ishlanmalar" holida taqdim etilmogda. Ular ongni o'ylash, fikr qilish, subyektiv xulosa chiqarishdan chalg'itadi.

Insonning ijtimoiy-ma'naviy kamoloti barcha davrlarda muhim bo'lib kelgan. Hozirgi davrda esa ham muhim, ham murakkab jarayon. Murakkabli shundaki, bugungi odam o'z oldiga juda ko'p talablar qo'ygan: ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faollik, ilm, ma'naviy kamolotga intilish, sport bilan shug'ullanish va



## OLIMPIADA SARI YO'L



Farg'ona tumanidagi Avval qishlog'ida oddiy oilada kamolga yetgan Rasuljon bolaligidanoq harakatchanligi, turli sport mashqlarini tez o'zlashtirib olish qobiliyati, ishtiyoqi bilan boshqa tengqurlardan ajralib turardi.

## IKKINCHI IMKONIYAT MAQSADGA

## YAQINLASHTIRMOQDA

Sport gimnastikasi bo'yicha jahon kubogi bosqichlari yakuniga ko'ra, "Parij-2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma olgan atletlar orasida farg'onalik Rasuljon Abdurahimov ham bor. U parallel brus yo'nalishidagi muvaffaqiyatli ishtiroki orqali Olimpiya o'yinlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Bu uning bunday nufuzli musobaqadagi ikkinchi ishtiroki.

Farg'ona tumanidagi Avval qishlog'ida oddiy oilada kamolga yetgan Rasuljon bolaligidanoq harakatchanligi, turli sport mashqlarini tez o'zlashtirib olish qobiliyati, ishtiyoqi bilan boshqa tengqurlardan ajralib turardi. Uning o'ziga xos noyob xislatlarini sezgan Shuhrat aka o'g'lini viloyat sport gimnastikasiga ixtisoslashtirilgan bolalar o'smirlar sport maktabiga olib bordi. O'shanda u yetti yoshda edi.

— Dadam bilan sport maktabiga kirib kelgan ilk hayajonli damlar, mashg'ulotlar jarayonidagi o'ziga xos qiyinchiliklar hanuz yodimda, — deydi Rasuljon. — Sport maktabidagi tengqurlarim hamda katta yoshdagi



sportchilar mahoratini ko'rib, havasim kelardi, ulardek bo'lishga intildim. Shu sababli mashg'ulotlarga tez kirishib ketganman. Sport maktabi qishlog'imizdan 20 chaqirimcha olisda joylashgan. Lekin belgilangan vaqtda avtobusga o'tirib, mashg'ulotlarga yetib borishga harakat qilardim. Oiladagilar intilishlarini hamisha qo'llab-quvvatlab, har jihatdan amaliy yordam bergan, yangi marralar sari ruhlantirib turgan. Sport bahslaridagi g'alabali odimlarimda ana shu mehr-muhabbatni his qilib turaman, undan kuch-quvvat olaman.

Yosh iqtidor egasi birinchi murabbiyi Oleg Zaysovdan sport gimnastikasining o'ziga xos talablari, qonun-qoidalari, jozibalari xususida nazariy va amaliy bilimlar oldi, mahoratini muttasil oshirib bordi. Bu izlanishlar uni katta sport maydonlari sari yetakladi. Sport gimnastikasi bo'yicha mamlakat terma jamoasi safiga qabul qilindi, sport ustasi degan sharafli unvonga sazovor bo'ldi.

Sportda muvaffaqiyat qozonish uchun orzu-havasning o'zi kamlik qiladi. U mehnat va izlanish, tinimsiz mashg'ulot, ustozlar o'git-maslahatlarining mahsuli. Bunga amal qilib, ish tutayotgan yosh



PARIS 2024

sportchi bir necha yildirki, xalqaro maydonlarda vatanimiz sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.

2014-yili XVII Osiyo o'yinlari, 2017-yilda Tailandda bo'lib o'tgan Osiyo chempionati sovrindori bo'ldi. 2018-2019-yillar "Qozog'iston Prezidenti ochiq kubogi" xalqaro bellashuvlarining mutlaq g'olibi sifatida e'tirof etildi. 2019-yil Gruziyaning Batumi shahrida bo'lib o'tgan xalqaro turnirda ikkita oltin medalni qo'lga kiritdi. Germaniyaning Shuttgart shahri mezonlik qilgan jahon chempionati, Tokio Olimpiadasida ishtirokchisi bo'ldi.

— Rasuljon boshqa sportchi yoshlardan harakatchanligi, o'z maqsadi yo'lida har qanday qiyinchiliklarga chidamliligi, o'quv mashg'ulotlariga ijodiy yondashishi, irodasi mustahkamligi bilan ajralib turadi, — deydi gimnastika bo'yicha respublika olimpiya sport mahorat maktabi bosh murabbiyi Ravshan Mirzayev. — Shu bois, u bilan mashg'ulot o'tkazish, belgilangan marralar sari qadam tashlash oson kechadi. Qolaversa, u boshqa sportchilar bilan tez do'stlasha olishi, yaxshi xulqi, jamoadagi ahil-inoqlik, hamjihatlik rishtalarini bog'lashda faolligi bilan ham ko'pingin hurmat-e'tiborini qozongan.

— Olimpiadaga qatnashishni har bir sportchi orzu qiladi, — deydi Rasuljon. — Ammo bu katta mas'uliyat. Shu bois, musobaqalarda har jihatdan munosib ishtirok etish, nufuzli sport bahslari sovrindori bo'lib, yurtimiz bayrog'ini xalqaro maydonda baland ko'tarish yo'lida mashg'ulotlarga zo'r beryapmiz. Buning uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan. Chunki nufuzli bellashuvlarda g'alabaga erishish oson kechmaydi.

Shu kunga qadar "Parij-2024" yozgi Olimpiada va Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan farg'onalik sportchilar soni 11 nafargacha yetdi.

**Rasuljon KAMOLOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetlari tahririyati) DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

Tahririya kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 1445.  
44304 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasi chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov  
Musahhib: Sherzod Mahmudov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy